


“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi direktori
Xavflarni boshqarish
qo‘mitasi Raisi v.v.b**


L. Saidoripov

2026-yil 23-iyul

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
yig‘ilishining 54-son bayoni**

2026-yil 23-iyul

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:

A. Jumanazarov – O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Xavflar boshqarish qo‘mitasi Raisi

Qatnashganlar:

Agentlik Xavflar boshqarish qo‘mitasi a‘zolari -
L. Saidoripov, J.Shakarov, T.Mashanpin, D.Umarova,
G.Aliev, D.Otamirzaeva.

Agentlik Xavflar boshqarish qo‘mitasi mustaqil a‘zosi:
S. Jo‘raev

Agentlik Xavflar boshqarish qo‘mitasi ishchi organi:
Moliyaviy ichki audit xizmati mas’ul xodimi S. Yunusov

KUN TARTIBI:

1. 1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 29-apreldagi 279-son qaroriga ko‘ra xavflarni aniqlash va baholash hamda ularni kamaytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan 2026-yil I-yarim yillikda amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish.

2. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Xavflarni boshqarish qo‘mitasini 8-sonli yig‘ilish bayonnomasi ijrosi yuzasidan muhokama qilish.

(Jumanazarov, Shakarov, Mashanpin, Saidoripov, Yunusov, Jumanazarov)

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) Xavflar boshqarish qo‘mitasi raisi **A. Jumanazarov** majlisni ochar ekan, Agentlik va tizim tashkilotlari faoliyatida xavflarni aniqlash, reestrini tuzish, dastlabki baholash va xavflarni kamaytirilishini oldini olish vazifalari belgilanganligini ta’kidladi.

Xavflar boshqarish qo‘mitasi raisi tomonidan mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan Agentlikning 2025-yil 18-iyuldagi 80-sonli buyrug‘iga asosan **Xavflar boshqarish qo‘mitasi a‘zolari** va ularning ish faoliyati bo‘yicha Nizomi tasdiqlanib, unda:

Agentlik tarkibiy bo'linmalari faoliyatidagi ish jarayonlarini tahlil qilish, xavflarni aniqlash va baholash bo'yicha Ishchi guruh tarkibi tasdiqlanganligi;

Agentlikda "Xavflarni boshqarish qo'mitasi" tashkil etilganligi va uning Nizomi tasdiqlanganligi;

Doimiy va har chorak yakuni xavflarni aniqlash, tahlil qilish hamda oldini olish, shuningdek oqibatlarini oldini olish yuzasidan Qo'mitaga axborot kiritib borish belgilanganligi **qayd etildi**.

Shunga ko'ra, 2026-yil 29-yanvarda Xavflarni boshqarish qo'mitasining 8-bayonnomasida Agentlik va tizim tashkilotlarida **263 ta xavflar reestri** aniqlanganligi va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanganligini aytib o'tib o'tildi.

Shundan so'ng, Agentlik va tizim tashkilotlarida 2026-yil I-yarim yillikda xavflarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o'tkazilgan monitoring tahlillari yakuni **ma'lum qilindi**.

Jumladan, oldingi Xavflar boshqarish qo'mitasi yig'ilishida qayd etilgan xavflar reestriga nisbatan **11 taga** (274 tani) ortganligi, shundan **yuqori darajali xavflar 35 taga** (106 ta) ortgan, o'rta darajali **71 taga** (78 ta) kamaygan, past darajali xavflar **36 ta** (90 ta) ortgan;

Monitoring natijalariga ko'ra xavflar reestrini 106 tasi (yoki 39 %) **yuqori xavflar**, 78 tasi (yoki 28 %) **o'rta xavflar** va 90 tasi (yoki 33 %) past xavflardan iborat.

Shuningdek, aniqlangan xavflar reestridan 195 tasi (+5 ta) Agentlik, **17 tasi** "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat muassasasi, **19 tasi** (+3 ta) "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorat markazi" davlat muassasasi, **18 tasi** (+3 ta) "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi, **14 tasi** "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi va **11 tasi** Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi hisobiga **to'g'ri keldi**.

Agentlik Xavflar boshqarish qo'mitasi a'zolari kun tartibidagi masalalar yuzasidan o'z fikrlarini **bildirdilar**.

Agentlikning **Xavflarni boshqarish qo'mitasini 8-sonli yig'ilish bayonnomasi** bo'yicha xavflarni aniqlash, baholash va monitoring natijalari bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi ma'qul deb **topildi**.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan eshitilgan mutasaddi rahbarlarning hisobotlarini, shuningdek mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risidagi takliflarini muhokama qilgan holda, **Qo'mita qaror qiladi**:

1. Moliyaviy ichki audit xizmatining **aniqlangan xavflar reestri** (1-ilova), **baholangan xavflar va ularni kamaytirish chora-tadbirlari rejasi** (2-ilova), xavflar monitoringi (3-ilova) va xavflar taxlili (4-ilova) ilovaga muvofiq **tasdiqlansin**.

2. Agentlik va tizim tashkilotlarining tarkibiy bo'linmalari hamda ushbu bo'linmalarga **mas'ul o'rinbosarlari** har chorakda Xavflar boshqarish qo'mitasiga:

- faoliyatda yuzaga kelgan yangi xavflarni kiritish;
- yuqori va o'rta xavflarni kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan 2-ilova chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash;

- bajarilgan ishlar yuzasidan yozma axborot berish bilan birgalikda o'zining taklif va tavsiyalarini kiritсин.

3. Agentlikning tizim tashkilotlari direktori (Sh.Ismatullaev, J.Kattaxodjaev, A.Abduraxmanov, M.Xamzaev, B.Sharipov) va uning o'rinbosarlari baholangan xavflar va ularni kamaytirish chora-tadbirlari rejasini bajarilishiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

4. Ichki audit xizmati (S.Yunusov) vazifalarni bajarilishini nazoratga olsin hamda rahbariyatga ma'lumot kiritib borsin:

Agentlik va tizim tashkilotlarining tarkibiy bo'linmalari tomonidan har chorakda Qo'mitaning ishchi organiga aniqlangan xavflar doirasida o'z axborotini kiritib borsin;

ishchi organi Xavflar boshqarish qo'mitasiga tahliliy monitoring natijalari bo'yicha axborot berish ishlari ta'minlasin.

5. Direktor o'rinbosarlari (L.Saidoripov, J.Shakarov, T.Mashanpin), Raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi (F.Usmanov) 2026-yil yil yakuniga qadar xavflarni elektron reestrini yuritish bo'yicha axborot tizimini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish vazifasi belgilansin.

6. Mazkur bayonni ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamga qoldiraman.

